

O'TKIR HOSHIMOVNING "DUNYONING ISHLARI" QISSASIDA ONA TIMSOLI

Farg'ona davlat universiteti Ingliz tili va adabiyoti yo'nalishi

Abdurahimova Dilraboxon Abdurahmon qizi

2-kurs talabasi

Ilmiy ish rahbari

Xurshida Umarova

Annotatsiya: Mazkur maqola tanqli o'zbek yozuvchisi O'tkir Hoshimovning "Dunyoning ishlari" qissasi va undagi ona obraziga diqqat qaratilgan. Unda ushbu timsolning ijodkor qalamida o'zgacha uslubda tasvir etilgani atroficha tahlil qilingan va muhim ilmiy-nazariy xulosalar chiqarilgan.

Kalit so'zlar: Ona, alla, novella, farzand, o'zbek ayoli, ayol matonati

60-yillar o'zbek adabiyotida yangicha dunyoqarash shakllana boshladi. Bu dunyoqarashning shakllanishida albatta, Abdulla Oripov, Said Ahmad Zulfiya, Abdulla Qahhor, O'tkir Hoshimov kabi otashnafasli ijodkorlarning hissasi beqiyos. Ular o'z asarlarida haqiqiy insoniy tuyg'ularni jamlay olgan. Asarlardagi qahramonlar ham xuddi haqiqatdan ham bor va ular bilan bitta dunyoda yashayotgandekmiz go'yo. Bu ijodkorlar badiiy asarlarni shunday tuyg'ularga boy holda yozdilarki, o'quvchi inson shu qahramon ichki kechinmalarini o'zida his qilib o'qiy oldi. Natijada esa insonlar adabiyotni qalb kaliti ekanligini tubdan anglay boshladilar.

Ayni mana shunday ijodi bilan ko'plab kitobxonlarning qalbidan joy egallagan otashnafas ijodkor O'tkir Hoshimovdir. U adabiyotga yangicha qarash va yangicha rang olib kirishi bilan ijodining boshlang'ich davrlaridanoq e'tiborga tusha boshlagan edi. Ayniqsa, ma'lum va mashhur bo'lган "Dunyoning ishlari" asari hammaning qalbidan joy egallagan. Shubhasiz, bu asarni o'qiganimizda o'z onalarimizni eslaysiz va ushbu asari bilan ijodkor dunyodagi barcha onalarning fazilatlariyu xislatlarini ochib bergan. Yana bir o'zbek adabiyotidagi hajv yo'nalashida sermahsul ijod qilgan adib Said Ahmad O'tkir Hoshimovning mazkur asarini shunday e'tirof qilgan: "Dunyoning ishlari" qissasini qissa emas, doston deb atashni istardim. U qo'shiqday o'qiladi. Uni o'qib turib o'z onalarimizni o'ylab ketamiz. Shu mushfiq, shu jafokash onalarimiz oldidagi bir umr uzib bo'lmas qarzlarimizning aqalli bittasini uza oldikmi, degan bir andisha, bir savol ko'z oldimizda ko'ndalang yotib oladi. Qissa bizni insofga, insonni qadrlashga, hurmat qilishga chaqiradi." [“5-sinf adabiyot”:darslik,2020, 134-bet]

Adibning "Dunyoning ishlari" qissasini onalar uchun o'rnatilgan haykal desak, hech ham mubolag'a bo'lmaydi. Asar bo'limidagi ona obraziga sharqona, o'zbekona ruh singdirilgan. Ushbu ona timsolining xarakter-xususiyati adibning boshqa asarlaridagi ona obrazlariga ham ko'chgan deb bemalol aytishimiz mumkin.

“Dunyoning ishlari” qissasi katta-kichik novellalardan iborat va har bir novellaning mazmunining markazida ona mavzusi yotadi. Qissadagi “Alla” hikoyasiga to’xtaladigan bo’lsak, bunda ijodkor o’zi hayotida tinglagan uch xil allaning guvohi bo’lishimiz mumkin. Inson dunyoga kelar ekan, birinchi eshitgan musiqasi albatta, mushtipar onasining allasi bo’ladi. Onasining shirin allasini eshitib, maza qilib orom olishadi. “Alla” nomli novellada ham ijodkor to’satdan chaqaloq yig’isini eshitib qoladi, orqasidan esa onaning farzandiga alla aytgani ehitiladi. Chaqaloq onasining ovozini eshitishi bilanoq tinchlanadi va uyquda davom etadi. Ushbu qissada yana bir ta’sirli novellalardan biri “Gilam paypoq” hikoyasidir. Bu hikoyani o’qib shubhasiz, har bir insonning aniqrog’i, har bir farzandning ko’ziga yosh keladi desak, hech ham mubolag’a bo’lmaydi. Mazkur hikoyada ona farzandi uchun hamma narsaga tayyor bo’lgan. Kechasi harorati ko’tarilib kasal bo’lib qolgan bolasini Hoji buvaning oldiga yordam so’rab boradi. Qish fasli, yarim kecha va qorong’u tun. Ko’cha sovuq va qor yog’ib turishiga qaramay mushtipar onaning butun xayoli jonajon farzandida. Hattoki, oyoq kiyimining ichiga qor to’lib, oyog’i sovuqqotganini ham his qilmaydi. Hoji buva bu ahvolni ko’rib bir qancha tavsiyalar beradi. Lekin, keyinchalik kunlar sovushi bilan onasining oyog’i og’rib qolishini ijodkorning o’zi ta’kidlaydi. Yillar o’tib, ijodkor onasiga gilam paypoq sovg’a qilganda, onaizor farzandini uzundan uzoq duo qiladi. Bu ham yetmagandek, xuddi qimmatbaho narsaga ega bo’lgandek qo’shnilarha ham maqtanar edi. Asardagi “Eng og’ir gunoh” hikoyasi ham ibratli, ham ta’sirli ko’lamda yozilgan. Hikoyada bola beboshligidanmi yoki jahli chiqganidanmi bir tovoq tolqonni to’kib yuboradi. Bu esa albatta, onaning g’azabini oshirib yuboradi. Chunki o’sha paytlar urushning sovuq nafasi butun dunyon qamrab olgan edi. Shu sababli barcha oilada oziq-ovqatning yetishmasligi, bu – asosiy mummo edi. Bunday paytda ovqatni to’kib yuborish, albatta, ona uchun yoqimsiz vaziyat edi. Ushbu hikoyada onalarimizning farzandlariga bo’lgan yana bir muhabbatlaridan biri bolasining aybini yashirish bo’lgan. Hattoki, turmush o’rtog’ining ayolidan jahli chiqganda ham ona indamay aybni o’z bo’yniga olib turaveradi. Bunday ish qilish kim uchun deb o’ylaysiz? Albatta, farzandi uchun, jondan aziz jigarbandi uchun. Bu hikoyani o’qib, inson onalarimiz haqida boshqacha bir tuyg’ularni his qilishi ajab emas.”Oq oydin kechalar” hikoyasiga to’xtaladigan bo’lsak, bunda ham ona har bir insonni qadrlaydigan, uning uchun qayg’uradigan timsoldir. Voqealar davomida uning tanigan va tanimagan insonlarga birdek mehribonchilik ko’rsatishi bunga dalil. Ayniqla, osmonda uchgan yulduzga qarab, bir bechoraning joni uzildi deya hayotda umuman bilmagan insoniga joni achishi undagi insoniy fazilatning yana bir ulkan ko’rinishidir. Ushbu qissada adib ona timsolini yaratishda ikki asosga tayangan: birinchisi, u real borliqda mavjud shaxs, ya’ni ijodkorning o’z onasi. Asarning boshida mualif bu xususida to’xtalib o’tgan: “Bu qissa katta-kichik novellalardan iborat. Biroq ularning barchasida men uchun eng aziz odam – onam siymosi bor”.

Ikkinchisi, umumlashtirish prinsipi orqali namoyon bo’ladi. Ya’ni, bunda ijodkor o’zbek onasining umumiyl xarakter-xususiyatlarini bir ona obrazida mujassamlashtirgan. Buni quyidagi misollarda yanada ravshan ko’rishimiz mumkin:

Qissa tarkibidagi “Tush” novellasi ham eng ta’sirli va go’zal hikoyalardan biri, desak yanglaishmagan bo’lamiz. Unda o’zbek onalarining eng muhim fazilati hisoblangan oila va farzandlar uchun fidoyilikni ko’ramiz.

Hayotda onalarimizni quyoshga mengzashlari bejiz emas, quyosh o’z nurlarini yerga beminnat taratgani kabi ona ham farzandlariga va oilasiga o’z mehrini minnatsiz beradi. Novellada ona jigargo’shasidan doimo xavotirda yashaydi. Hatto olamni tark etganda ham farzandini o’z mehr nuridan bahramand etgisi kelishi asarda mohirlik bilan tasvirlangan. Darhaqiqat, qissada ona qiyofasi keng va to’laqonli tavsiflanadi. Bu tavsiflanish jarayonida adibning adabiy mahorati va individual uslubi ko’zga yaqqol tashlanadi.

Xulosa qilib aytganda, ona mavzusi O’tkir Hoshimov uchun navqiron va abadiy tugallanmas ilhom manbaidir. “Dunyoning ishlari” qissasi har bir inson vaqtida onasining qadriga yetishi va uning oldidagi burch hamda vazifalarini bajarish lozimligini eslatadi. Yo’qsa, vaqtlar o’tgandan so’ng afsus qilishi tayin, albatta. Ushbu asar onalarning kechinmalari, his-tuyg’ulari, go’zal xislatlarini oolib berish bilan birga, farzandlar uchun nasihat hamdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abdushukirova G. O’tkir Hoshimovning Dunyoning ishlari qissasi badiiy tahlili/Proceedings of Global Technovation journal, 2020.
2. Atajonova A. O’tkir Hoshimovning Dunyoning ishlari qissasida ayol va zamon qiyofasi/Central Asia Academic journal of scientific research, 2022.
3. Hoshimov O’. Yarim asr daftari. – Toshkent 2004.